

ERTAKLARNING MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR IJTIMOIY-HISSIY RIVOJLANISHIDAGI AHAMIYATI

Xolboboeva Madina

*Nizomiy nomidagi TDPU Maktabgacha ta'lim pedagogikasi va
psixologiyasi yo'nalishi 4-bosqich talabasi*

Annotatsiya. Ertak- xalq og'zaki poetik ijodining asosiy janrlaridan biri; to'qima va uydirmaga asoslangan sehrli sarguzasht va maishiy xarakterdagi epik badiiy asar. Asosan, nasr shaklida yaratilgan. Mahmud Koshg'ariyning "[Devonu lug'otit turk](#)" asarida etuk shaklida uchraydi va biror voqeani og'zaki tarzda hikoya qilish ma'nosini bildiradi. Maqolada ertaklarning maktabgacha yoshdagi bolalar ijtimoiy-hissiy rivojlanishidagi o'rni va umuman ertaklarning shaxs shakllanishidagi ahamiyati haqida mulohazalar yuritiladi.

Kalit so'zlar. Ertak, tarbiya, ijtimoiy-hissiy rivojlanish, ertak terapiya, meditatif, psixoterapevtik, psixokorrektiv, didaktik, badiiy

Ertak inson tarbiyasida muhim rol o'ynaydi. Ertaklar hayot haqiqatiga asoslangan, xayolot va fantastika xususiyatlari bilan yo'g'rilgan, odamlarga ibrat, o'git beruvchi og'zaki hikoyalar hisoblanadi. O'zbeklar o'rtasida "varsoqi", "cho'pchak", "ushuk", "masala" kabi atamalar bilan yuritilgan. Mahmud Qoshg'ariy o'zining "Devonu lug'atit turk" asarida ertaklarni "etuk" tarzida ishlatganini ko'rish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturining 3-bob 2-qismida bolaning rivojlanish sohalari kompetensiyalari belgilangan bo'lib, "**Ijtimoiy-hissiy rivojlanish**" sohasidagi ta'lim va tarbiya jarayoni yakunida 6-7 yoshli bola:

- o'z "Men"i va boshqa insonlarning hayotiy faoliyat muhitidagi roli to'g'risida tasavvurga ega bo'ladi;
- o'z hissiyotlarini boshqaradi va ularni vaziyatga mos ravishda ifodalaydi;
- o'zgalarning hissiyotlarini farqlaydi va ularga mos ravishda javob beradi;
- kattalar va tengdoshlar bilan vaziyatga mos ravishda muloqot qiladi;
- murakkab vaziyatlardan chiqishning amaliy yo'llarini topadi.

Beqarorlik, yangi sharoyit va munosabatlarga moslashishdagi qiyinchiliklar tufayli 6 yoshli bola to'g'ridan-to'g'ri hissiy aloqalar (emotsional munosabat) ga muhtoj bo'lib, rasmiylashtirilgan maktab sharoyitida bu ehtiyoj qondirilmaydi. Psixologlar va o'qituvchilar 6 yoshidan boshlab maktabda o'qishning ko'plab ijobiy va salbiy tomonlarini keltirib o'tishadi. Ushbu yoshda maktabga borishga bo'lgan eng jiddiy e'tirozlarni D. B. Elkonin ilgari surgan. Uning yozishicha, bolalar rivojlanishining keyingi, yuqori bosqichiga o'tish ichki qarama-qarshiliklarni namoyon qiladi. Agar bu

qarama-qarshiliklar pishib yetilgunga qadar mukammal bo'lsa — ob'ektiv omillarni hisobga olmasdan subyektiv ravishda majburlansa — demak, bola shaxsi shakllanishi sezilarli darajada zarar ko'radi. Maktabgacha yoshdagi bolalikni bir yilga qisqartirish hozirgi degeneratsiya rivojlanish jarayonini buzishi va foyda keltirmasligi mumkin. D. B. Elkonin 6 yoshdan boshlab maktabda o'qishni tashkil etish o'rniga, bolalar bog'chalariga tayyorgarlik guruhlarini kengaytirish maqsadga muvofiq, deb hisoblaydi, chunki bolalarni maktabga tayyorlash qulayroq, negaki bolalar bog'chasidagi bolalar yaxshiroq, ular yanada to'liq, xilma-xil hayot tarzini kechirishadi va yanada quvnoq va sog'lom ko'rinishga ega bo'lishadi.[1]

Sotsializatsiya yoki ijtimoiylashuv - inson tomonidan ijtimoiy tajribani egallash va hayot - faoliyat jarayonida uni faol tarzda o'zlashtirish jarayonidir. Sodda til bilan aytganda, ijtimoiylashuv - har bir shaxsning jamiyatga qo'shilishi, uning normalari, talablari, kutishlari va ta'sirini qabul qilgan holda, har bir harakati va muomalasida uni ko'rsatishi va kerak bo'lsa, shu ijtimoiy tajribasi bilan o'z navbatida o'zgalarga ta'sirini o'tkaza olish jarayonidir. Ijtimoiylashuv eng avvalo odamlar o'rtasidagi muloqot va hamkorlikda turli faoliyatni amalga oshirish jarayonini nazarda tutadi.

Ertaklar-yaxshilikka yetaklar. Insoniy yaxshi fazilatlarni targ'ib qilish yoki aksincha xarakterdagi yomon jihatlarni bayon etishda eng qulay va ta'sirchan usullardan biri ertak hisoblanib, bolalarga yaxshi va yomonni ajratishga, hayotni bolalar tilida tushunishga yordam beradi. Garchi ertaklar haqiqatga to'g'ri kelmasada, bolalarga ijobiy ta'sir qiladigan ta'lim berishning eng samarali usullaridan hisoblanadi. Ertaklar bolalar rivojlanishi uchun asosiy bilimlarni qiziqarli, sodda ko'rinishda yetkazib beradi. Shuningdek, ertak bolalarning [tafakkur doirasini kengaytirib](#), xotirasini yanada kuchaytirish maqsadida mantiqiy fikrlashini rivojlantirishning asosiy omillaridan biri sanaladi. Turli-tuman sarguzasht voqealar asosiga qurilgan syujet, o'zida yaxshilik, insoniylik fazilatlarini singdirgan, xotirada tez saqlanib qolishdek xususiyatiga ega va bayon etishga oson, talaffuz qilishga qulay sintaktik qurilmalardan, tarkibida turli xil jumboqlardan tashkil topgan ertaklar bola tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Uch yoshdan yeti yoshgacha bo'lgan bolalarning aqliy rivojlanishi, fikrlashni shakllantirish asosiy vazifa hisoblanadi. Bu ertak yordamida bajariladi.

Ertak – bu shunday belgilar tizimi bo'lib, uning yordamida bola atrofdagi voqelikni o'zi tushungandek talqin qiladi. Ertak tanlayotganda, bolalarning yoshini va ruhan rivojlanganligini hisobga olish lozim. Tarbiyachi va ota-onalar bunga e'tibor bersagina ertaklar bolalarga foyda keltirishi mumkin.

[Ertaklardan foydalanish](#) bolalarning qobiliyatlarini rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ertakdan foydalanib, bolalarga ta'lim berishda yuqori natijalarga erishish mumkin.

Bolalar tarbiyasi bilan ishlashda ertak terapiyasidan ham foydalaniladi.

Ertak terapiyasi eng qadimiy usul hisoblanadi. Ota-bobolarimiz ham farzand tarbiyasi chog'ida jinoyatchi Bolani jazolashga shoshilmay, unga ertak aytib berishgan, bu ertak orqali bolalar o'z xatolarini tushnib yetishgan. Ertaklar axloqiy tarbiya beruvchi vosita bo'lib xizmat qilgan, bolalarga qanday yashashni o'rgatgan. Ertakning inson hayotiga qanday ta'sir qilishini har bir ota-ona, tarbiyachi bilsagina bola rivojlanishiga juda ko'p yordam bera olish mumkin. Ertak terapiyasi natijasida bola kattalarning yordamini his qiladi. Shuningdek, ertak dunyosini idrok etish orqali maktabgacha yoshdagi bolaning hissiy sohasini rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, tasavvurni shakllantiradigan tasvir va g'oyalar bilan boyitish mumkin. Ertak terapiyasi usullari ota-onalar tomonidan o'zlashtirilishi lozim. Buning uchun ular tarbiyachi va psixologlardan maslahatlar olishi lozim. Ertak terapevtlari tomonidan ishlatiladigan ertak turlari

1) *Meditativ* (ishlatiladi psixo-emotsional stressdan xalos bo'lish uchun). Qoidaga ko'ra, vositachilik qilingan ertaklarning syujetida salbiy belgilar va ziddiyatlar mavjud emas. Bu ertaklar ziddiyatlar va yomon qahramonlar yo'qligi bilan ajralib turadi. Ular psixologik yukdan keyin dam olish uchun mo'ljallangan. Ular ertak terapiyasining eng qiyin turi. Chunki ular muayyan muammoni hal qilishga qaratilgan emas. Meditatsiya ertaklari ko'pincha bola bilan muloqot shaklida olib boriladi. bu esa psixologga bolaning aniq yoki yashirin ehtiyojlariga asoslangan uchastkasini o'zgartirishga yordam beradi.

2) *Didaktik*, o'quv topshirig'i shaklida. Bolalarga yangi bilimlarni yetkazish uchun foydalaniladi.

3) *Badiiy* (xalq). Ularda xalq donoligi bor. Oddiy, tushunarli syujet axloqiy tarbiyaga hissa qo'shadi.

4) *Psixoterapevtik*. Ushbu ertaklarning o'ziga xos xususiyati baxtli yakundir. Bolalar ular uchun rasmlar chizadilar, spektakl qo'yadilar, bosh qahramonlar tasvirlari asosida o'yinchoqlar yasaydilar

5) *Psixokorrektiv*. Aytilgan ertaklar maktabgacha yoshdagi bolaning xulq-atvoriga yumshoq va befarq ta'sir qiladi. Ertakning axloqi muhokama qilinmaydi, bolaga o'zi bilan yolg'iz o'ylash imkoniyatini beradi.

Bu kabi ertaklar bolalarning aqliy qobiliyatini rivojlantiradi. Tarbiyachilar ota-onalar bilan hamkorlikda bunday ertaklarni bolalarga ko'proq aytib berishi va savollar orqali muhokama qilishlari lozim. Shundagina bolalar xotirasida o'tilgan mashg'ulotlar mustahkamlanib boraveradi. Bugungi kunda bolalarga ertak o'qib beradigan ota-onalarning soni afsuski kamayib bormoqda. Bolalarning aqliy tarbiyasi bilan birga, o'zbek xalq ertaklari orqali axloqiy tarbiyasiga ham ertaklar orqali ta'sir qilish, ularni to'g'ri tarbiyalash mumkin. Buning uchun tarbiyachilar ota-onalarga bu borada maslahatlar berishi, ertak kitoblarni o'zlari tavsiya qilishi lozim. Chunki tarbiyachi boalning yoshiga mos ertaklarni bilganligi uchun tog'ri kitobni tavsiya qila

oladi. Bundan tashqari hozirda zamonaviy texnologiyalar tobora rivojlanib bormoqda. Bu rivojlanish ta'lim tizimiga ham o'z ta'sirini o'tkazib, ta'lim samaradorligini ma'lum darajaga oshirdi desak adashmagan bo'lamiz. Multimedia vositalari bolalarga ertaklarni tinglash imkonini yaratdi. Bundan tashqari ertaklarning multifilm ko'rinishiga kelishi bolalar uchun juda qiziqarli va ta'lim olishiga katta yordam berdi. Lekin bu jarayonga bog'lanib qolishlik tavsiya etilmaydi. Chunki ota-onalar bolalarga o'zlari ertak o'qib berishlari bola ruhiyatiga ta'sir qilib ularda mehr tuyg'usini shakllantiradi. Buni har bir ota-onalar e'tiborga olishlari lozim. Tarbiyachilar ota-onalar bilan bo'ladigna suhbat, yig'ilishlarda bu boradagi o'z tavsiyalarini berishsa, ota-onalarda ham pedagogik qobiliyatni shakllantirish uchun treninglar o'tkazib turishsa maqsadga muvofiq bo'lardi. Shuningdek, ta'lim jarayonida doimo bir xil ertaklardan foydalanish ham kutilan natijani beravermaydi, doimo yangi ertaklardan foydalanish lozim. Ana shunday sharoitda yangi bilimlar o'zaro bir-biriga uzviy bog'lanadi.

Ona allasi bilan Vatanga, onaga muhabbat uyg'onsa, ertaklar orqali bola fazilat va illatlarni farqlashni o'rganadi. Kerak bo'lsa, tahlilni, tanqidni, taqlidni o'rganadi. Ertak orqali bolaning fikrlash doirasi kengayadi. Ezgulik hamisha yovuzlik ustidan g'alaba qozonishini anglab yetadi. Insonning salbiy hamda ijobiy jihatlarini ajratadi. Misol uchun, "Zumrad va Qimmat" ertagida Zumradning mehnatkashligi, halolligi, muloyimligi, odobliligi kabi ijobiy fazilatlarini tahlil qilamiz, o'rganamiz, o'rgatamiz. Zumrad ijobiy fazilati tufayli mukofotlanganining guvohi bo'lamiz. Bu ertakni o'qigan qizlar Zumradga o'xshashga intiladilar. Undagi ijobiy fazilatlarni o'zlarida ham qo'llay boshlaydilar. Natijada qizlarimiz orasida Zumradlar ko'payadi. Qimmat obrazidan o'zlariga kerakli xulosalarni chiqarib oladilar.

Shirindan-shakar bolajonlarimizga buvijonlarimiz, onajonlarimiz erinmay ertaklar aytib bersalar, ular ma'nau barkamol, axloqan yetuk, mulohazali insonlar bo'lib ulg'ayadilar. Dono xalqimiz "ertaklar - yaxshilikka yetaklar", degan iborani bejiz aytmagan. Shu bois ham farzandlarimizning ertaklarga oshino bo'lishiga alohida e'tibor qaratish zarur.

Xulosa [qilib aytganda](#), ertaklar orqali bolalar bilimni yanada oshirish mumkin. Ertaklar bolaning rivojlanishida, ayniqsa, ularning aqliy va axloqiy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari ertaklar bolalarning tafakkur doirasini kengaytirib, xotirasini ham mustahkamlashini inobatga olish va bolalarga ertaklarni ularning qiziqishidan kelib chiqqan holda tanlash lozim.

Bundan tashqari, tarbiyachi o'zining pedagogik mahoratini ishlatgan holda ertak qahramonlarini bola qiziqishiga moslab o'zgartirib ta'lim jarayonida qo'llasa ta'lim samaradorligi yanada ortadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Norkobilova S.G. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy-hissiy rivojlanishi va ularning shaxs sifatida shakllanishi // Молодой ученый. — 2021. — № 18 (360). — С. 532-533.
2. Kushakova G, Muzaffarova S. Maktabgacha yoshdagi bolalar ijtimoiy-hissiy rivojlanishida ijtimoiy omillarning o'rni
3. Abdullayevna, G. G. (2023). Importance of Pictures Based On Fairy Tales In Spiritual And Moral Education Of Preschool Children. *Academia Science Repository*, 4(6), 289-292.
4. Gaynazarova, G. A. (2023). OTA-ONA QARAMOG'IDAN MAHRUM BO'LGAN BOLALAR MA'NAVIYATIDA IJTIMOY MUHITNING TA'SIRI. "GERMANY" MODERN SCIENTIFIC RESEARCH: ACHIEVEMENTS, INNOVATIONS AND DEVELOPMENT PROSPECTS, 9(1).
5. Gulnara Narimanovna Eshchanova. (2023). SOCIOLOGY OF PRESCHOOL EDUCATION AND INTEGRATION OF EDUCATIONAL TASKS. *Web of Teachers: Inderscience Research*, 1(9), 132–135. Retrieved from
6. Teshabayeva, Z. S. (2021). PROFESSIONAL TRAINING OF FUTURE PRESCHOOL TEACHERS IN THE FIELD OF CONTEXTUAL LEARNING TECHNOLOGIES. *Academic research in educational sciences*, 2(2), 1360-1367.
7. Uralovna, J. F. (2023). SOCIAL AND PEDAGOGICAL CHARACTERISTICS OF THE DEVELOPMENT OF CREATIVITY OF CHILDREN IN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, 11(4), 20-23.